

VII. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT

Qashqadaryo viloyati tashqi savdo aylanmasi 2021- yilning yanvar-sentabrida **418,4** mln. AQSh dollari, jumladan eksport **181,9** mln. AQSh dollari, import **236,5** mln. AQSh dollari tashkil etdi.


Tashqi savdo saldosi – **54,6** mln. AQSh dollari, shu jumladan MDH davlatlari bilan **4,2** mln. AQSh dollari va boshqa davlatlar bilan **-58,9** mln. AQSh dollari tashkil etdi.

Qashqadaryo viloyatining tashqi savdo aylanmasi (2021- yil yanvar-sentabr)

| | <i>mln. AQSh dollari</i> | <i>2020- yilning yanvar-sentabriga nisbatan, % hisobida</i> | <i>jamiga nisbatan ulushi, % hisobida</i> |
|-------------------------------|------------------------------|---|---|
| Tashqi savdo aylanmasi | 418,4 | 110,7 | 100,0 |
| MDH davlatlari | 123,8 | 120,2 | 29,6 |
| boshqa davlatlar | 294,6 | 107,1 | 70,4 |
| Eksport | 181,9 | 115,2 | 100,0 |
| MDH davlatlari | 64,0 | 97,1 | 35,2 |
| boshqa davlatlar | 117,9 | 128,2 | 64,8 |
| Import | 236,5 | 107,4 | 100,0 |
| MDH davlatlari | 59,8 | 161,2 | 25,3 |
| boshqa davlatlar | 176,7 | 96,5 | 74,7 |
| Saldo | -54,6 | x | x |
| MDH davlatlari | 4,2 | x | x |
| boshqa davlatlar | -58,9 | x | x |

MDH va boshqa davlatlarning Qashqadaryo viloyatini


tashqi savdo aylanmasidagi ulushi
(yanvar-sentabr)



Qashqadaryo viloyatining 2021- yil yanvar-sentabr oylarida tashqi savdo aylanmasidagi ulushining 29,6 % MDH davlatlariga to'g'ri keladi qolgan 70,4 % boshqa davlatlar hissasiga to'g'ri keldi. Bu ko'rsatkichlar 2020- yilda mos ravishda 27,2 % MDH davlatlariga to'g'ri kelgan bo'lsa, qolgan 72,8 % boshqa davlatlar hissasiga to'g'ri keldi. Qashqadaryo viloyatining MDH davlatlari bilan olib borilgan tashqi savdo aylanmasi 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida 123,8 mln. AQSh dollari tashkil qilgan bo'lsa, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 20,8 mln. AQSh dollarga ko'payish kuzatildi.

MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog'iston, Tojikiston, Ukraina, Qirg'iziston va Turkmaniston davlatlari tashqi savdo aylanmasida asosiy hamkorlar hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 28,7 % ni tashkil qiladi, boshqa davlatlar orasida Turkiya, Xitoy, Shveysariya, Pokistan, Afg'oniston, Eron, Germaniya va Polsha davlatlari hisoblanadi.

**Qashqadaryo viloyati tashqi savdo aylanmasida nisbatan
katta ulushga ega bo'lgan davlatlar, foizda**
(2021- yil yanvar-sentabr)



Qashqadaryo viloyatining 2021- yil yanvar-sentabr holatiga tashqi savdoda eng asosiy hamkor davlatlari Turkiya (21,1 %), Xitoy (20,2 %), Rossiya (15,3 %), Shveysariya (10,6 %) hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 67,3 % ni tashkil qiladi.

Dunyodagi mamlakatlar orasida eksportda hamkor davlatlar Turkiya, Rossiya, Xitoy, Qozog'iston, Pokiston, Afg'oniston, Tojikiston hisoblanib, ularning jami eksportdagi ulushi 81,1 % ni tashkil qiladi, importda esa hamkor davlatlar Xitoy, Shveysariya, Turkiya, Rossiya, Qozog'iston va Germaniya davlatlari hisoblanadi, hamda ularning ulushi 83,9 % ni tashkil qiladi.

**Qashqadaryo viloyati tashqi savdo aylanmasida nisbatan
katta ulushga ega bo'lgan davlatlar**
(2021- yil yanvar-sentabr)

ming AQSh dollari

| Davlat nomi | Tashqi savdo aylanmasi | Eksport | Import | Tashqi savdo aylanmasi | |
|---------------------|------------------------|------------------|------------------|------------------------|----------------------|
| | | | | ulushi, % | O'zgarish sur'ati, % |
| Jami | 418 400,2 | 181 864,0 | 236 536,2 | 100,0 | 110,7 |
| Turkiya | 88477,4 | 50405,4 | 38072,0 | 21,1 | 2,2 m. |
| Xitoy | 84345,2 | 25852,8 | 58492,4 | 20,2 | 92,2 |
| Rossiya | 64058,1 | 28170,4 | 35887,7 | 15,3 | 156,9 |
| Qozog'iston | 44517,8 | 23,1 | 44494,7 | 10,6 | 26,8 m. |
| Eron | 27431,8 | 12476,3 | 14955,5 | 6,6 | 74,8 |
| Pokistan | 12133,3 | 11794,5 | 338,8 | 2,9 | 2,1 m. |
| Qirg'iziston | 10125,1 | 10113,9 | 11,2 | 2,4 | 134,9 |
| Ukraina | 9026,4 | 8637,7 | 388,7 | 2,2 | 2,6 m. |
| Germaniya | 8919,8 | 6807,0 | 2112,8 | 2,1 | 25,4 |
| Fransiya | 7806,0 | 4820,6 | 2985,4 | 1,9 | 2,2 m. |
| Koreya Respublikasi | 7393,3 | 6147,2 | 1246,1 | 1,8 | 78,3 |
| Turkmanistan | 6938,1 | 428,2 | 6509,9 | 1,7 | 22,4 |
| Polsha | 4712,1 | 4294,2 | 417,9 | 1,1 | 2,4 m. |
| Tojikistan | 4168,3 | 1422,5 | 2745,8 | 1,0 | 164,2 |
| Afg'onistan | 4034,3 | 7,4 | 4026,9 | 1,0 | 111,7 |
| Misr | 3402,2 | 2666,3 | 735,9 | 0,8 | 30,8 |
| Kanada | 3124,5 | - | 3124,5 | 0,7 | 80,1 |
| Italiya | 2198,4 | 676,3 | 1522,1 | 0,5 | 39,3 |

| Davlat nomi | Tashqi savdo aylanmasi | Eksport | Import | Tashqi savdo aylanmasi | |
|----------------------|------------------------|---------|--------|------------------------|----------------------|
| | | | | ulushi, % | O'zgarish sur'ati, % |
| Buyuk Britaniya | 2064,5 | - | 2064,5 | 0,5 | 3,1 m. |
| Latviya | 1881,7 | 1019,4 | 862,3 | 0,4 | 2,1 m. |
| Chexiya | 1652,9 | 13,5 | 1639,4 | 0,4 | 21,0 |
| Hindiston | 1618,7 | 1618,7 | - | 0,4 | 188,6 |
| Moldova Respublikasi | 1594,1 | 0,3 | 1593,8 | 0,4 | 191,3 |
| Avstriya | 1494,7 | 1475,2 | 19,5 | 0,4 | 6,6 m. |
| Shvetsiya | 1482,5 | - | 1482,5 | 0,4 | 53,8 |
| AQSh | 1430,3 | 98,5 | 1331,8 | 0,3 | 16,2 |
| BAA | 1289,7 | - | 1289,7 | 0,3 | 2,1 m. |
| Litva | 1142,8 | 62,4 | 1080,4 | 0,3 | 172,2 |
| Niderlandiya | 1112,2 | - | 1112,2 | 0,3 | 143,5 |
| Shveysariya | 973,3 | 973,3 | - | 0,2 | 81,7 |
| Belorussiya | 957,4 | 194,6 | 762,8 | 0,2 | 41,9 |
| Singapur | 928,2 | 179,5 | 748,7 | 0,2 | 191,0 |
| Yaponiya | 878,3 | 0,9 | 877,4 | 0,2 | 159,2 |
| Boshqa davlatlar | 5086,7 | 1483,8 | 3602,9 | 1,2 | - |

Qashqadaryo viloyatining eksport tarkibida tovarlar va xizmatlar guruhlarini bo'yicha yuqori ulush, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari 60,5 foiz, kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar 13,6 foiz, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar 10,2 foizni tashkil qildi.

Eksport tarkibi

| XSST tarkibi | Jami | | | MDH davlatlari | | | Boshqa davlatlar | | |
|--|-------------------|----------------------------|-----------------------------|-------------------|----------------------------|-----------------------------|-------------------|----------------------------|-----------------------------|
| | mln. AQSh dollari | o'tgan yilga nisbatan, %da | umumiy hajmga nisbatan, %da | mln. AQSh dollari | o'tgan yilga nisbatan, %da | umumiy hajmga nisbatan, %da | mln. AQSh dollari | o'tgan yilga nisbatan, %da | umumiy hajmga nisbatan, %da |
| Jami eksport | 181,9 | 115,2 | 100,0 | 64,0 | 97,1 | 100,0 | 117,9 | 128,2 | 100,0 |
| shu jumladan: | | | | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 27,9 | 79,2 | 15,4 | 19,4 | 70,1 | 30,4 | 8,5 | 112,6 | 7,2 |
| Ichimliklar va tamaki | 0,1 | 43,0 | 0,1 | 0,1 | 42,5 | 0,2 | - | 62,5 | - |
| Nooziq-ovqat xom-ashyo, yoqilg'idan tashqari | 10,7 | 28,1 | 5,9 | 1,2 | 2,2 m. | 1,8 | 9,6 | 25,4 | 8,1 |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar | 15,6 | 17,3 m. | 8,6 | 6,8 | 25,1 m. | 10,6 | 8,7 | 9,7 m. | 7,4 |
| Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalan-gan sanoat tovarlari | 112,0 | 2,3 m. | 61,6 | 23,7 | 173,6 | 37,1 | 88,3 | 2,6 m. | 74,9 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar | 5,9 | 22,4 | 3,2 | 4,9 | 26,4 | 7,7 | 1,0 | 12,7 | 0,8 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 0,3 | 4,5 m. | 0,2 | 0,3 | 4,5 m. | 0,5 | - | 5,2 m. | - |
| Turli xil tayyor buyumlar | 2,7 | 81,8 | 1,5 | 2,7 | 88,1 | 4,2 | - | 4,0 | - |
| Hayvonlar va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar | - | 0,4 | - | - | 3,2 | - | - | - | - |
| Xizmatlar | 6,7 | 2,2 m. | 3,5 | 4,9 | 2,8 m. | 7,3 | 1,8 | 144,6 | 1,6 |


Import tarkibi

| XSST tarkibi | Jami | | | MDH davlatlari | | | Boshqa davlatlar | | |
|--|-------------------|----------------------------|-----------------------------|-------------------|----------------------------|-----------------------------|-------------------|----------------------------|-----------------------------|
| | mln. AQSh dollari | o'tgan yilga nisbatan, %da | umumiy hajmga nisbatan, %da | mln. AQSh dollari | o'tgan yilga nisbatan, %da | umumiy hajmga nisbatan, %da | mln. AQSh dollari | o'tgan yilga nisbatan, %da | umumiy hajmga nisbatan, %da |
| Jami eksport | 236,5 | 107,4 | 100,0 | 59,8 | 161,2 | 100,0 | 176,8 | 96,5 | 100,0 |
| Oziq-ovqat va tirik hayvonlar | 15,6 | 189,6 | 6,6 | 8,5 | 195,8 | 14,2 | 7,1 | 182,6 | 4,0 |
| Yoqilg'idan tashqari, nooziq-ovqat xom ashyosi | 11,3 | 97,8 | 4,8 | 7,9 | 100,6 | 13,2 | 3,4 | 92,0 | 1,9 |
| Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar | 4,7 | 103,3 | 2,0 | 4,4 | 104,7 | 7,3 | 0,4 | 89,5 | 0,2 |
| Hayvon va o'simlik moylari, yog'lar va mumlar | 0,4 | 12,0 m. | 0,2 | 0,3 | 9,9 m. | 0,5 | 0,1 | 19,2 m. | - |
| Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar | 19,3 | 85,7 | 8,2 | 7,6 | 143,6 | 12,8 | 11,7 | 67,8 | 6,6 |
| Sanoat tovarlari | 35,5 | 173,2 | 15,0 | 23,8 | 3,5 m. | 39,9 | 11,7 | 85,7 | 6,6 |
| Mashina va transport uskunalari | 144,0 | 101,0 | 60,9 | 5,9 | 86,3 | 9,9 | 138,1 | 101,7 | 78,1 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 4,2 | 47,5 | 1,7 | 0,4 | 42,8 | 0,7 | 3,8 | 48,1 | 2,2 |
| Xizmatlar | 1,4 | 112,6 | 0,6 | 0,9 | 126,1 | 1,5 | 0,6 | 96,2 | 0,4 |

Xizmatlar eksporti tarkibi, %

2020- yil yanvar- sentabr

2021- yil yanvar- sentabr



Tovar va xizmatlar eksporti 2021- yilning yanvar-sentabr oylarida 181,9 mln. AQSh dollarini tashkil etdi, shundan: xizmatlar eksporti 6,6 mln. AQSh dollarini tashkil etdi va jami eksport hajmining 3,6 % ini tashkil qildi.